



OLIV HARBIY BILIM YURLARIDA RUS TILINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qodirova Feruza Mamurovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti

Tillarni o'rganish kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10989929>

ARTICLE INFO

Received: 11th April 2024

Accepted: 15th April 2024

Published: 18th April 2024

KEYWORDS

ta'lim-tarbiya, zamonaviy
texnologiya, izlanish, klaster,
insert, o'zaro munozara, davra
suhbati, ta'lim sifati va
samaradorligi.

ABSTRACT

Mazkur maqola harbiy bilim yurtlarida rus tili o'qitishda innovation texnologiyalarga bag'ishlangan. Maqolamizda harbiy bilim yurtlarida ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutilgan. Xususan, rus tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjudligi keltirib o'tilgan.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi tobora murakkablashib bormoqda, shitob bilan o'zgarib borayotgan olamda o'qituvchi o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablar asosida faoliyat ko'rsatishga to'g'ri kelmoqda.

Ayni paytda pedagog faoliyati bilan bog'liq ish usullari, sifat o'zgarishlari uchun imkoniyat yaratuvchi pedagogik yangiliklar paydo bo'lmoqda. Bularning hammasi pedagog faoliyati va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim sifatiga e'tibor qaratish masalalarini murakkablashuviga olib keladi va ularni hal qilishning yangi, ilmiy asoslangan usullariga ehtiyoj tug'diradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishni o'qituvchisiz tasavvur etish mumkin emas. O'qituvchi shaxsi-ta'lim jarayonining ham sub'ekti, ham tashkilotchisidir. Uzlüksiz tarzda davom etadigan takomillashuv jarayonining samarali kechishi ma'lum darajada o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyasi mazmuni va metodikasiga bog'liq.

ASOSIY QISM

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, rus tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Harbiy bilim yurtlarida ham til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish rus tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab

tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda kursanti bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Harbiy bilim yurtlarida ham ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda kursantlar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Rus tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda kursantlar chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish kursantlarning rus tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Globalashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Rus tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali rus tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali kursantda chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innavatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilrning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbqiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Rus tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. Kursantlarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa kursantlarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Shunday qilib, talabalarni faolligini oshirish o'qituvchi o'z oldiga vazifa belgilashi va ana shu vazifani bajarish uchun izlanishi, zamonaviy texnologiyaning turli turlaridan foydalanib, kursantni faolligini oshirish zarur. Rus tili darslarida talabalarining faolligini oshirishi uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

- kursantlar uchun dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muxit yaratish;
- kursantlarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon berish;
- olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etish;
- har bir talaba o'zini ta'lim mazmunini muallifidek his qiluvchi muhit yaratish kabi imkoniyatlar ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishishga asos bo'ladi.

Shu bilan birga fanni o'qitishda "Har kim har kimni o'qitadi" metodidan foydalanish mumkin. Bu metodni yangi mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. Bu metod kursantlarga dars jarayonida faol qatnashishlariga imkon beradi, kursantlarning o'zlashtirish darajasi ortadi, xotirasi mustahkamlanadi.

O'tkazish tartibi:

1. Har bir kursantga dars mavzusiga oid dalil (fakt)lar yozilgan topshiriqlar tarqatiladi.
2. Bir necha daqiqada talabalar mavzuga doir ma’umotlarni yozadilar. O’qituvchi kursantlar topshiriqni qanday tushunganliklarini kuzatadi.
3. Kursantlar to’plagan ma’lumotlarni o’zaro muhokama qilishlari taklif etiladi. Mashq har bir kursanto’z fikrini bildirmaguncha davom etadi.
4. Vazifa shunday qo’yiladiki, kursantlar yangi ma’lumotlarni bir-biridan bilib oladilar.

Shuningdek zamonaviy innovatsion texnologiyalar rus tilini o’qitish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ularning rivojlanishi tilni o’rganishda yangi yondashuvlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Innovatsion yondashuvlar rus tili darslarini batafsil, qiziqarli va yorqinroq qiladi. Masalan dars jarayonida kursantlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun istiqbolli uslubiy metodlardan foydalanish kerak:

- klasterlar, insert (nazariy materialni mustaqil o’rganayotganda);
- jadvallarni to’ldirish, ikki qismli kundalik;
- to’xtash bilan o’qish, qo’shma izlash;
- o’zaro munozara, davra suhbat;
- ixtirochi muammolarni hal qilish texnologiyalari,
 - “Xatoni topish”, klassik ma’ruza mashg’ulotlari;
- audiovizual texnik vositalar yordamida o’qitish,
- testlar, loyiha usuli kabilar.

Berilgan vazifa uchun materialni mustaqil izlash, kursantlarning faol aqliy faoliyati o’quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga o’qituvchining talabchanligi, xaqqoniyligi, halolligi, mehribonligi, xushmuomalaligi kursantlar tomonidan fanni yaxshi o’zlashtirilishiga sabab bo’ladi.

Hozirgi kunda ta’lim oluvchining bilimlarini holisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik–pedagogik jihatdan o’qitish (dars berish) va tarbiyalash mahorati ham ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash printsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilish, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarni o’zlashtirishlarini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo’llash mahoratiga ega bo’lish kerak. Shu kabi omillar ham nafaqat rus tili balki barcha fanlarni o’zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, rus tili o’qitishda faoliyat ko’rsatayotgan pedagoglar o’zida zamonaviy o’qituvchi imidjini yaratib, ertaga zamonaviy maktabda ta’lim beradigan o’qituvchilarni ham imidjini yuqorida ko’rsatilgan talablar asosida o’zgartirishi, ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jalolov J. “Chet tili o’qitish metodikasi” Toshkent.1996 yil. Yo’ldoshev J. T. “Yangi pedagogik texnologiyalar yo’nalishidagi muammoni yechimlari.Toshkent.1999 yil.
2. Ishmuhamedov R. «Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Toshkent “Nizomiy nashriyoti”. TDPU 2005 yil.
3. K.Turg’unboeva, M.Ortiqova. Pedagogik innovatsiya asoslari. (o’quv qo’llanma)
4. O’zbekiston qahramoni K.G’opirov. “Siz murabbiy”, bo’lajak va yosh o’qituvchi hamda

tarbiyachilar uchun estaliklar.

5. Turakulova Feruza Aminovna. Qualified practice and media education. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022), 1693 -1698
6. Mamurovna, Q. F. (2022). The role and importance of the command in educating cadets on the basis of spiritual and moral values in higher military educational institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 32-34.
7. Mamurovna, Q. F. (2022). Implementation of the Methodology of Spiritual and Ethical Education of the Cadets of Higher Military Educational Institutions in Practice. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 29-31.
8. qizi Zarifova, D. O. (2023). RANGLARNING FAZOVIIY BIRIKMALARI VA XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 159-162.
9. Qodirova, F. M. (2022). OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 3(4), 1159-1163.
10. Qodirova, F. M. (2022). Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini ma'naviyaxloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikasini amalga oshirish shakllari. Science and Education, 3(7), 197-199.
11. Qodirova, F. M. (2022). OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA QO'MONDONLIKNING ROLI. Academic research in educational sciences, 3(6), 213-216.
12. qizi Zarifova, D. O. (2023). SHARQ GRAFIKA SAN'ATIDA MAISHIY JANRNING O'RGANILISHI. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 57-62.
13. Qodirova, F., & Norboyev, A. (2023). GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAMIYATIMIZDA TARBIYA VA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 72-74.
14. Qodirova, F., Allayev, Y., & Norboyev, S. H. (2023). NEW CONSTITUTION-PRINCIPLE OF PROSPEROUS LIFE. Modern Science and Research, 2(3), 228-231.
15. Qodirova, F. (2022). "YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH" KONSEPSIYASI VA UNING KURSANTLAR TARBIYASIDAGI O'RNI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(13), 67-70.
16. Qodirova, F. (2023). KONSTITUTSIYA-HAYOTIMIZNING, TARAQQIYOTIMIZNING HUQUQIY ASOSI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(12), 21-24.
17. Mamurovna, Q. F. (2024). KURSANTLARGA RUS TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. IMRAS, 7(2), 202-205.